


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahri bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 020,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **9,3** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2 715,3** mlrd. so'mni, o'zgarish sur'ati (**148,1** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar **4 172,2** mlrd. so'mni (**93,1** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **133,0** mlrd. so'mni (**96,3** % ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, foizda



## O'sish (o'zgarish) sur'ati, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent shahri bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 020,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **9,3%** ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha tumanida chakana savdo aylanmasining o'sishi kuzatildi. Yirik biznes tarkibida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.




### ENG YUQORI ULUSH

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Yunusobod tumani **15,0 %** ulush bilan **1 055,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mirzo Ulug`bek tumani **5,8 %** ulush bilan **404,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar  
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



2020-yil yanvar-fevral  
2021-yil yanvar-fevral

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi umumiy savdo hajmining **61,3** foizini tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining asosiy ulushi Bektemir (94,4 foiz), Uchtepa (93,5 foiz), Mirzo Ulug'bek (78,7), Shayxontoxur (68,7 %) Olmazor (78,3 %), va Yashnobod (72,5 %) tumanlarida kuzatildi.





**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yunusobod (155,9 %), Olmazor (128,0%), Sirg'ali (106,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,  
foizda**





|                 | Jami, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral- oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral- oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral- oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------|------------------|---|------------------------------|---|---|---|
| Toshkent shahri | 7 020,5          | 109,3   | 2 715,3                      | 148,1   | 4 305,2   | 93,7  |
| Uchtepa         | 752,2            | 101,6   | 60,5                         | 126,1   | 691,6   | 99,9  |
| Bektemir        | 499,5            | 102,8   | 36,6                         | 135,4   | 462,9   | 100,8   |
| Yunusobod       | 1 055,2          | 155,9   | 635,2                        | 711,3   | 420,0   | 71,5  |
| Mirzo Ulug'bek  | 404,9            | 104,4   | 93,0                         | 112,5   | 311,9   | 102,2   |
| Mirobod         | 455,7            | 105,3   | 242,4                        | 142,2   | 213,3   | 81,4  |
| Shayxontohur    | 728,8            | 101,4   | 237,5                        | 105,7   | 491,4   | 99,5  |
| Olmazor         | 455,8            | 128,0   | 175,7                        | 227,4   | 280,0   | 100,4   |
| Sirg'ali        | 499,9            | 106,1   | 379,2                        | 191,0   | 120,7   | 44,3  |
| Yakkasaroy      | 633,9            | 101,3   | 332,6                        | 124,4   | 301,3   | 84,0  |
| Yashnobod       | 458,3            | 100,2   | 149,3                        | 118,8   | 308,9   | 93,2  |
| Yangiheyot      | 54,7             | 98,4  | -                            | -   | 54,7  | 98,4  |
| Chilonzor       | 1 021,7          | 100,5   | 373,2                        | 71,4  | 648,6   | 131,3   |

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar



Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Chakana tovar ayirboshlash tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash hajmi **48,1** foizga o'sdi va **2 715,3** mlrd so'mga yetdi, bu uning umumiy hajmining **38,7%** ni tashkil etadi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **4 172,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,7%** ga kamaydi. Chakana tovar ayirboshlashda ushbu sohaning shahardagi ulushi **61,3%** ga yetdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa hududlariga nisbatan eng katta ulushini Yangihayot (100,0%), Bektemir (92,7%), Uchtepa(92,0%), Mirzo Ulug'bek (77,0%), Shayxontoxur (67,4%) va Yashnobod (67,4%) tumanlari tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash ulushi umumiy sotishning 38,7% ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Sirg'ali (75,9%), Yunusobod (60,2%) Yakkasaroy (36,4%), va Mirobod (35,5%) tumanlarida kuzatildi.



## TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATI


Toshkent shahrida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yil yanvar-fevral oyida o'rtacha **2 675,1** ming so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi).

Ushbu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan Bektemir (14 070,8 ming so'm), Yakkasaroy (5 269,7 ming so'm) va Chilonzor (4 016,1 ming so'm) tumanlarida ko'proq qayd etildi.




|                | Hajm, ming so'm | 2020-yil yanvar-fevral- oylariga nisbatan, % da |
|----------------|-----------------|---|
| Toshkent sh.   | 3 013,2         | 3,8   |
| Uchtepa        | 1 542,0         | 36,3  |
| Bektemir       | 3 749,7         | 281,7   |
| Yunusobod      | 2 142,2         | 28,9  |
| Mirzo Ulug'bek | 2 631,9         | 35,7  |
| Mirobod        | 5 329,1         | 71,2  |
| Shayxontohur   | 1 357,8         | 29,0  |
| Olmazor        | 3 116,2         | 26,9  |
| Sirg'ali       | 1 987,1         | 48,6  |
| Yakkasaroy     | 6 499,8         | 83,1  |
| Yashnobod      | 5 084,0         | 40,0  |
| Chilonzor      | 3 733,5         | 39,3  |

Asosiy tarkib, foizda




Jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, uyushmagan savdo hajmi 2021-yil yanvar-fevral oylarida **133,0** mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,7** % ga kamaydi. Jumladan, dehqon bozorlarida savdo aylanmasi **113,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **100,6** ) chorvachilik bozoridagi savdo aylanmasi **19,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **101,7** %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI**

2021-yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **113,1** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **19,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



\* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

|                        | Jami,<br>mlrd.<br>so‘m | 2020-yil<br>yanvar-fevral<br>oyiga<br>nisbatan,<br>foizda | Dehqon<br>bozorlari,<br>mlrd. so‘m | 2020-yil<br>yanvar-fevral<br>oyiga<br>nisbatan,<br>foizda | Chorva<br>(parranda)<br>bozorlari,<br>mlrd. so‘m | 2020-yil<br>yanvar-fevral<br>oyiga<br>nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|------------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>133,1</b>           | <b>93,3</b>   | <b>133,1</b>                       | <b>93,3</b>   | <b>19,9</b>                                      | <b>101,7</b>  |
| <i>tumanlar:</i>       |                        |   |                                    |   |  |   |
| <b>Uchtepa</b>         | 8,3                    | 59,1  | 8,3                                | 59,1  | -  | -   |
| <b>Bektemir</b>        | 27,1                   | 129,0   | 27,1                               | 129,0   | 10,4   | 49,6  |
| <b>Yunusobod</b>       | 17,5                   | 105,6   | 17,5                               | 105,6   | -  | -   |
| <b>Mirzo Ulug‘bek</b>  | 8,7                    | 58,5  | 8,7                                | 58,5  | -  | -   |
| <b>Mirobod</b>         | 3,4                    | 42,4  | 3,4                                | 42,4  | -  | -   |
| <b>Shayxontohur</b>    | 7,1                    | 61,9  | 7,1                                | 61,9  | -  | -   |
| <b>Olmazor</b>         | 3,6                    | 32,3  | 3,6                                | 32,3  | 2,30   | 52,1  |
| <b>Sirg‘ali</b>        | 2,1                    | 33,1  | 2,1                                | 33,1  | -  | -   |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 4,9                    | 46,0  | 4,9                                | 46,0  | -  | -   |
| <b>Yashnobod</b>       | 18,8                   | 135,1   | 18,8                               | 135,1   | -  | -   |
| <b>Yangihayot</b>      | 0,6                    | 48,9  | 0,6                                | 48,9  | -  | -   |
| <b>Chilonzor</b>       | 31,0                   | 228,9   | 31,0                               | 228,9   | -  | -   |

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,1 mlrd.  
so'm

**Tuzlamalar**



44,1  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



5,5 mlrd.  
so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

11,0  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



9,3 mlrd.  
so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

1,6  
mlrd. so'm



**Tuxum**

13,3  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

0,2  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-xashaklar**

2021-yil yanvar-fevral oyida Toshkent shahrining barcha tumanlaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (shaxsiy yordamchi tomorqalarida yetishtirilgan) sotish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo turining aylanmasi **113,1** milliard so'mni tashkil etdi.

2,1 mlrd.  
so'm



**Ziravorlar**

21,6  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2,4 mlrd.  
so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2021-yil yanvar-fevral oyida Toshkent shahrining barcha tumanlarida parrandachilik va chorva mollarini sotish bilan shug'ullanadiganlar (shaxsiy fermalarda saqlanadigan) bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo aylanmasi **12 681,2** million so'mni tashkil etdi. Turli yoshdagi qoramollarni sotish **7 929,3** mln. so'mga, qo'y va echkilar – **3 930,2** mln. so'mga, otlar - **796,2** mln. so'mga, qushlar - **25,5** mln so'mga yetdi.






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATI**

2021-yil yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **4,0** % ni tashkil etib, **389,0** mlrd so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,9** % ga kamaydi, ularning **73,6** foizi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'ati, foizda**



|                        | Jami, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|------------------|---|------------------------------|---|---|---|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>389,0</b>     | <b>103,9</b>                                  | <b>102,7</b>                 | <b>115,5</b>                                  | <b>148,3</b>                                      | <b>100,5</b>                                  |
| <i>tumanlar:</i>       |                  |   |                              |   |   |   |
| Uchtepa                | 16,6             | 105,5   | 1,0                          | 159,3   | 13,6  | 103,9   |
| Bektemir               | 11,9             | 134,6   | 2,9                          | 158,5   | 4,2   | 178,3   |
| Yunusobod              | 44,9             | 68,6  | 9,7                          | 50,5  | 32,3  | 75,6  |
| Mirzo Ulug'bek         | 40,3             | 100,8   | 2,4                          | 103,7   | 34,5  | 100,8   |
| Mirobod                | 34,0             | 99,7  | 4,8                          | 148,3   | 28,3  | 94,5  |
| Shayxontohur           | 85,5             | 175,3   | 57,0                         | 275,9   | 26,9  | 100,1   |
| Olmazor                | 32,3             | 132,1   | 3,4                          | 5 272,9                                       | 26,8  | 118,9   |
| Sirg'ali               | 12,0             | 33,1  | 6,6                          | 23,8  | 4,7   | 63,9  |
| Yakkasaroy             | 38,5             | 106,4   | 3,7                          | 65,8  | 33,0  | 114,8   |
| Yashnobod              | 24,8             | 99,2  | 4,4                          | 187,3   | 18,0  | 89,1  |
| Yangihayot             | 4,3              | 140,7   | -                            | -   | 4,0   | 143,6   |
| Chilonzor              | 43,8             | 120,6   | 6,8                          | 127,6   | 35,6  | 119,3   |


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo hajmi **7 907,9** mlrd so'mga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish **24,8 %** ni tashkil etdi. Kichik biznesning ulgurji savdo aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **4 727,5** mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,5 %** ga kamaydi. Toshkent shahridagi ulgurji savdo aylanmasida ushbu sektorning ulushi **59,8** ni tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATI**


O'tgan yilga nisbatan yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori o'sish sur'ati Yashnobod (207,9%), Yunusobod (147,6%) va Chilonzor (143,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda**




|                 | Jami,<br>mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-<br>fevral oyiga<br>nisbatan, foizda | Yirik<br>korxonalar,<br>mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-<br>fevral oyiga<br>nisbatan, foizda | Mikrofirma<br>va kichik<br>korxonalar,<br>mlrd. so'm | 2020-yil yanvar-<br>fevral oyiga<br>nisbatan, foizda |
|-----------------|---------------------|--|------------------------------------|--|--|--|
| Toshkent shahar | 7 907,9             | 124,8  | 3 180,4                            | 224,7  | 4 727,5  | 96,1   |
| Uchtepa         | 424,7               | 104,5  | 42,8                               | 137,8  | 381,9  | 101,8  |
| Bektemir        | 133,1               | 108,7  | 12,2                               | 304,7  | 120,9  | 102,1  |
| Yunusobod       | 741,2               | 147,6  | 344,4                              | 402,7  | 396,8  | 95,3   |
| Mirzo Ulug'bek  | 737,7               | 114,6  | 209,2                              | 193,0  | 528,5  | 98,8   |
| Mirobod         | 748,7               | 107,1  | 163,5                              | 163,7  | 585,3  | 97,7   |
| Shayxontohur    | 467,8               | 110,7  | 117,0                              | 607,7  | 350,8  | 86,9   |
| Olmazor         | 1 157,4             | 121,9  | 588,5                              | 171,4  | 568,9  | 93,9   |
| Sirg'ali        | 408,9               | 100,3  | 56,2                               | 44,7   | 352,8  | 125,1  |
| Yakkasaroy      | 781,9               | 93,5   | 277,1                              | 85,8   | 504,8  | 98,5   |
| Yashnobod       | 1 272,5             | 207,9  | 867,5                              | 863,6  | 405,0  | 79,2   |
| Yangihayot      | 84,1                | 116,0  | 9,8                                | -  | 74,3   | 102,6  |
| Chilonzor       | 949,8               | 143,6  | 492,3                              | 341,8  | 457,5  | 88,4   |

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri      Uchtepa      Bektemir      Yunusobod      Mirzo Ulug`bek      Mirobod      Shayxontohur      Olmazor      Sirg'ali      Yakkasaroy      Yashnobod      Chilonzor



2020-yil  
yanvar-  
fevral  
2020-yil  
yanvar-  
fevral

Hisobot davrida ulgurji savdo aylanmasi tarkibida kichik biznes aylanmasining ulushi umumiy sotishning **59,8 %** ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Uchtepa (89,9 %), Bektemir (90,8%), Shayxontohur (75,0 %), Mirobod (78,2 %) va Yunusobod (53,5 %) tumanlarida kuzatildi.

